(4). Амосова Н.Н. Основы английской филологии. Л., изд-во Ленингр. ун-та, 1963, с. 96; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., Международные отношения, 1972, с. 8; Kuzmin S.S. Translating Russian Idioms. M., "Higher School", 1977, p. 8.

(5). Федоров А.В. Введение в теорию перевода (лингвистические проблемы). М., 1958, с. 171.

(6). Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. Т., "Фан", 1957, с. 126.

(7). Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idomalarni tarjima qilish masalasiga doir. Toshkent, 1961, 3-bet.

(8). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 610-bet.

(9). Узбекско-русский словарь. Т., Главная редакция УзСЭ, 1988, с. 87.

(10). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, T.:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 352-bet.

(11). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 141-bet.

Komilova Gavharoy (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., PhD; e-pochta: r_gavharov@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

TIL TA'LIMI QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, o'z navbatida, til ta'limi jarayonida qadriyatlarning singdirilishiga ham e'tibor qaratiladi. Bu esa til ta'limiga qadriyat sifatida qarash dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Maqolada A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari misolida o'sha davr ustuvor qadriyatlari haqidagi tahlillar berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari "Hifzi lison" bo'limida ustuvor qadriyatlar sifatida milliy o'zlikni anglash va asrash, jumladan, milliy til, adabiyot, lisoniy etika, ta'lim ko'rsatilgan hamda o'sha davr lisoniy vaziyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda til ta'limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokda, ya'ni, til ta'limi davlat darajasidagi, til ta'limi ijtimoiy qadriyat va til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, til ta'limi, aksiolingvistika, qiymat, qadriyat, til, aksiologik ong, baho, baholash, subyekt, ijtimoiylashuv, jamiyat, sotsiolingvistika, lisoniy vaziyat.*

Комилова Гавхарой (и.о. доцента Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени А.Навои, PhD; e-pochta: r_gavharov@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЦЕННОСТЬ

Аннотация. *Поскольку ценности рассматриваются как компонент языка, в свою очередь, внимание уделяется привитию ценностей в процессе языкового образования. Это показывает, что рассмотрение языкового образования как ценности является актуальным. В статье анализируется приоритетные ценности того времени на примере работы А.Авлони «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ». По результатам анализа в разделе «Хифзи лисон» произведения «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» в качестве приоритетных ценностей обозначены понимание и сохранение национальной идентичности, включая национальный язык, литературу, языковую этику, образование. Также приводятся сведения о языковой ситуации того времени. В данной работе языковое образование как ценность представлено в трех аксиологических блоках: языковое образование на государственном уровне, языковое образование как социальная ценность и языковое образование как личностная ценность.*

Ключевые слова: *ценность, языковое образование, аксиолингвистика, ценность, значение, язык, аксиологическое сознание, оценка, оценивание, субъект, социализация, общество, социолингвистика, языковая ситуация.*

Komilova Gavharoy (Acting Associate Professor of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after A.Navoi, PhD; e-mail: r_gavharoy@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

LANGUAGE EDUCATION AS A VALUE

Annotation. *Since values are considered as a component of language, attention is paid to the instillation of values in the process of language education. This shows that the consideration of language education as a value is relevant. The article analyzes the value of language education and the priority values of that time using the example of A.Avloni's work "Turkiy guliston yohud axloq" According to the results of the analysis in the "Hifzi lison" section of the work "Turkiy guliston yohud axloq", the understanding and preservation of national identity, including national language, literature, language ethics, and education are designated as priority values. Information about the language situation of that time is*

also provided. In this work, language education as a value is presented in three axiological blocks: language education at the state level, language education as a social value, and language education as a personal value.

Keywords: *value, language education, axiolinguistics, value, value, language, axiological consciousness, assessment, evaluation, subject, socialization, society, sociolinguistics, linguistic situation.*

Kirish. Bugungi kunda til bilan bir qatorda til ta'limi ham qadriyat sifatida baholanmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida namuna sifatida yondashayotgan Kembrij ta'lim usuli (Finlyandiya tajribasi)da ham inson huquqlari, tenglik, xilma-xillik, barqarorlik qadriyatlari o'quv materiali, o'quv dasturining spetsifikasi sifatida keltirilgan. Til ta'limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokni namoyon qiladi:

Til ta'limi davlat darajasidagi qadriyat sifatida.

Til ta'limi ijtimoiy qadriyat sifatida.

Til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida [4;6-b.].

Ko'rinadiki, mazkur aksiologik bloklar o'zaro uzviy bog'langan.

Til ta'limini qadriyat sifatida anglash tilga davlat, jamiyat va shaxs munosabatini aks ettiruvchi ilmiy hamda amaliy faoliyatni ishlab chiqish, keng yoyishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Mutaxassislar hozirgi bosqichda qadriyat aspektining ta'lim jarayoni zarur komponenti sifatida qaralishini ta'kidlashmoqda. Tilni xoh ona tili, xoh chet tili sifatida bo'lsin, qadriyatlar tizimisiz o'rgatish mantiqsizdir. Tilning mohiyatida turuvchi sotsiomadaniy kompetensiya shu madaniyatning qadriyatlar bilimiga asoslanuvchi madaniy qoidalardan foydalanish mahoratini o'zida ifoda etadi [3;734-b.].

Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, o'z navbatida, til ta'limi jarayonida qadriyatlarning singdirilishiga ham e'tibor qaratiladi. Zero, bugungi globallashuv va ommaviy madaniyatning keng yoyilib borishi milliy qadriyatlarni asrash va avlodlarga yetkazish mas'uliyatini oshirmoqda.

Ona tiliga qadriyat munosabatni shakllantirish, bizningcha, zamonaviy ta'limning, birinchi navbatda, filologik va gumanitar fanlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunonchi, til insonlarning yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqeyi va moddiy holatidan qat'i nazar, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun birlashtiruvchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy to'siqlarga qaramay, avlodlar va ijtimoiy tuzilmalarning tarixiy o'zgarishida xalqning birligini saqlaydi, shu orqali xalqni zamonda, geografik va ijtimoiy makonda birlashtiradi.

Inson va olam munosabatlarida voqea-hodisalarning ijtimoiy belgilanishi jarayonida shakllanadigan asosiy qadriyatlar jamiyat dunyoqarashini aks ettiradi, etnos hamda uning mentalitetida namoyon bo'ladi.

Insonning umumiy madaniyati va nutq madaniyati haqida gapirganda, uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri til merosini o'zlashtirish va til mentalitetini saqlash mas'uliyatiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu jihatdan jadid adabiyoti, jumladan, A.Avloniyning asarlari muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Til qadriyati tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda lingvistik etika va uning namoyon bo'lishi bilan bog'liq fikrlar ham mavjud. Lingvistik etika ichki axloqiy g'oyalarga iborat. Lingvistik etika odob-axloq qoidalari kabi muayyan vaziyat sharoitlariga bog'liq emas, chunki u tilda va til orqali rivojlanib, namoyon bo'ladigan chuqur ongosti tuyg'u hisoblanadi. Ma'naviy qadriyatlardan *haqiqat, mehr va go'zallik* lingvistik etika va xulq-atvorga asoslanadi. Nutq odob-axloqi - bu insonlarning samarali muloqot qilishiga yordam beradigan qoidalar va tamoyillardir [7;214-b.].

Demak, lisoniy did til birliklarining boyligi va xilma-xilligi ko'rsatadigan lisoniy muhitda: maqollar, frazeologik birliklar, sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi. Bu holat lingvistik etikaning murakkab tarkibga egaligini anglatadi. Ya'ni, lingvistik etika lingvistik mentalitetning tarkibiy qismi bo'lib ona tilida so'zlashuvchilar uchun eng muhim tushunchalar: qadriyat, madaniyat, dunyoqarash va uning xususiyatlarini belgilaydi. Til etikasining bu xususiyatlari ona tilining shakl va birliklarini tushunish hamda o'zlashtirish bilan bir vaqtda spontan ravishda shakllanadi. Boshqa tomondan, inson hayoti davomida ong nazorati ostida lingvistik etika va lingvistik did o'sa-di, ya'ni qadriyatlardek dinamik rivojlanib boradi.

Natija va muhokama. Jadidlarning ilmiy merosini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganar ekanmiz, biz doimo ularning lingvistik etikasi, lingvistik faktlar va hodisalarga nisbatan o'ta obyektivligi, o'sha davr lingvistik hayoti haqida ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berganining guvohi bo'lamiz. Zero, til va xalq mavjudligining ma'lum bir bosqichiga tegishli haqiqiy lingvistik holati – ma'lum bir tilning ona tilida so'zlashuvchilari bilan belgilanadi.

Maqolada A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini aksiolingvistik jihatdan o'rgandik. Ya'ni, o'sha davrdagi ustuvor qadriyatlar va ularning voqelanishi, mazkur qadriyatlarning xalq uchun dolzarbligi qay darajada izohlanganiga e'tibor qaratdik. Zero, jadid ma'rifatparvarlari tanlagan va muhim deb bilgan qadriyatlar hozirgi zamon uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Asarning “Hifzi lison” bo‘limida ona tili, milliy til, lingvistik etika haqidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Mazkur misralarda oyinai hayoti, millatning ruhi til va adabiyotni baholovchi predikat sifatida aksiosferani shakllantirmoqda. “Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur”. A.Avloniy bu yerda o‘sha davrdagi lisoniy vaziyat haqida ma’lumot beryapti. Ya’ni, rus tilining rasmiy til sifatidagi mavqeyi oshib borayotgani, rus tilini o‘rganish davr talabi ekanligini anglash mumkin. Shuningdek, “…hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak **hayot** va **saodatimiz** uchun **osh va non kabi** keraklik narsadur” jumlasida lingvistik faktlar va hodisalarga nisbatan o‘ta obyektivligi namoyon bo‘lmoqda. “***Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak*** *lozimdur*”da ona tilida so‘zlash, ona tili ta’limi, milliy tilni asrash va ri-vojlantirish singari muhim masalalar o‘rtaga tashlangan.

“Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar **xususiy og‘iz** orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki **so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini** o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi **fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini** so‘zlagan so‘zidan bilurlar”. Zero, milliy til insonlarni birlashtiruvchi vazifani bajarish bilan birga, milliy mentalitetni aks ettiradi. Lisoniy shaxs bir vaqtning o‘zida madaniy shaxs ham hisoblanadi. Ushbu misralarni tilga sotsiolingvistik va aksiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni, “xususiy og‘iz orasi-dagi tilni saqlamak”da har bir inson til va uni asrashga mas’ulligi, tilning shaxsiy qadriyat darajasi ifoda etilib, shaxsning kommunikativ salohiyatiga ham e’tibor qaratilgan. “**Xususiy og‘iz orasidagi til”** nutqni ifodalamoqda. Insonning nutq madaniyati va uni o‘stirish ko‘zda tutilgan. Zero, Yangi O‘zbekistonning ichki til siyosatida ham “Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish” davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlardan deb belgilangan [1;PF].

Har bir nutq xususiy va individuallik kasb etib, egasi haqida ma’lumot beradi. Keyingi misralarda so‘z intelektual va axloqiy jihatdan baholangan: So‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon **tarozus**i”. So‘zning inson hayotidagi, inson va jamiyat munosabatlaridagi o‘rni uning mavqeyi, ilm va ma’naviyatini belgilovchi mezon bo‘lib voqelangan. “Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”da so‘z qadriyati fikr, niyat, ilm, quvvat, qadr va qiymat leksemalarida so‘z qadriyati alohida aksiosferani tashkil etgan. So‘z qadri tadrijiy ketma-ketlikda ifodalanar ekan, baho darajasi ortib borgan.

Qadriyatlar mavhum tushunchalar orqali ifodalanar ekan, ularning ma’no darajasida farqlar kuzatiladi. Qadriyatlar aniq otlar bilan ifodalanish darajasidan mavhum otlar orqali ifodalangan tushunchalar tomon tadrijiy, ketma-ketlik asosidagi ma’noni namoyon etadi [5;35-b.]. Aniq fanlardagi shkala usulini qadriyat va bahoni ifodalash usuli sifatida qo‘llash mumkin.

Aksiologik maqsadlarda qo‘llanadigan shkalalar aksiologik shkalalar hisoblanadi. Aksiologik shkalada o‘z ifodasini topgan inson qadriyatlari tizimi rang-barang xususiyatga ega. Baho shkalasi bahoning obyektiv va subyektiv xarakteri, norma va etalon belgilarini namoyon qiladi [6;83-b.].

Xulosa. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida til ta’limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokda, ya’ni, til ta’limi davlat darajasidagi, til ta’limi ijtimoiy qadriyat va til ta’limi shaxsiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida milliy tilni asrash, rivojlantirish, nutq madaniyati, lisoniy etika qadriyat sifatida adibning dunyoqarashi va maqsadlarini ifodalamoqda. A.Avloniy ham millatparvar, ham tilshunos bo‘lib o‘sha davr lisoniy vaziyati haqida obyektiv ma’lumotlar bera olgan. Asarning “Hifzi lison” bo‘limida milliy tilni saqlash, rivojlantirish, insonlarning nutq madaniyati o‘stirish, xorijiy til, rus tilini o‘rganish ustuvor qadriyatlar sifatida ko‘rsatilgan. Demak, jadid adabiyoti namunalari maqqol va matallardek qadriyatlar tarjimoni sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-farmoni. https://lex.uz/docs/-5058351.

(2). A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2004, 96-bet.

(3). Дмитриева Н.М. К вопросу о церковнославянском языке и языковой этичности. Библия и национальная культура. Межвуз. сб. научн. ст. и сообщ. Пермь, Пермский государственный университет, 2004, с. 311–312.

(4). Богданова Л.И. Оценки и ценности в зеркале словарей русского языка. Когнитивная лингвистика. Аксиологическая семантика. Вестник РУДН, 2017, серия, Лингвистика, с. 734.

(5). Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. М., "Академия", 2004, с. 6.

(6). Komilova G. Methods of analysis of values reflected in proverbs (2022). International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), p. 34–43. https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05.

(7). Komilova G. O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Monografiya, Toshkent, 2022, 108-bet.

(8). Самойлова Г.С. Язык как ценность: научное наследие Н.Д.Русинова и современность. Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2013, № 6(2), с. 214–217.

(9). Самойлова Г.С. Языковые ценности как основа формирования человека культуры. Нижегородское образование, 2016, 2, с. 51–58.

Murhanova Nilufar Yigitaliyevna (Andijon davlat Chet tillari instituti "Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi" kafedrasi arab tili o'qituvchisi)

O'ZBEK TILIDA QO'LLANILAYOTGAN ARAB TILIGA OID TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *O'zbek tilidagi diniy va ilmiy asarlarda ko'plab arabcha atamalar, jumladan, kitob, ilm, fikr, zuhd kabi so'zlar uchraydi. Arab tili Sharq falsafasi va islom ilmi orqali madaniyatimizga katta hissa qo'shgan. O'zbek tilidagi arabcha so'zlarning lingvokulturologik jihatlari O'zbekiston tarixi, madaniyati va diniy merosi bilan chambarchas bog'liq.*

Kalit so'zlar: *arab tili, madaniyat, lingvokulturologiya, Sharq falsafasi, terminlar.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В религиозных и научных произведениях в узбекском языке встречается множество арабских терминов, в том числе такие слова, как китаб, илм, фикр, зухд. Арабский язык внес большой вклад в нашу культуру посредством восточной философии и исламской науки. Лингвокультурные аспекты арабских слов в узбекском языке тесно связаны с историей, культурой и религиозным наследием Узбекистана.*

Ключевые слова: *арабский язык, культура, лингвокультура, восточная философия, термины.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ARABIC TERMS USED IN UZBEKISTAN

Annotation. *In religious and scientific works in the Uzbek language, there are many Arabic terms, including words such as kitab, ilm, fikr, zuhd. Arabic language has made a great contribution to our culture through Eastern philosophy and Islamic science. Linguistic-cultural aspects of Arabic words in the Uzbek language are closely related to the history, culture and religious heritage of Uzbekistan.*

Key words: *Arabic language, culture, linguistic culture, Eastern philosophy, terms.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida nutq egasi tinglovchi yoki o'quvchiga o'z fikrini aniq, lo'nda va tushunarli qilib yetkazishi uchun tilning ta'sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi tobora ko'proq e'tibor jalb qilmoqda. O'zbek tilshunosligida madaniy qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi milliy konseptosferani antoprotsentrik yo'nalishda o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Tilning turli xalqlar hayotidagi funksionalligi hamda lingvokognitiv, lingvokulturologik mohiyatiga asosiy e'tibor qaratilayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Burchnig turlari va modellarini ochib beradigan hamda odamlarning oilaviy, qarindoshlik, kasbiy, do'stlik, qonuniy, diniy munosabatlaridagi milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon qiluvchi leksik, frazeologik, paremiologik birliklarning turli diskurslarda namoyon bo'luvchi jihatlarini tahlil qilish bugungi kunda o'ta dolzarbdir. So'nggi yillarda insoniyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangiliklar – globallashuv, integratsiya, "davr shiddati va ruhi" – inson omili ekanligi va bu inkor qilib bo'lmas haqiqat ("azaldan to abad") ekanligi ilm-fan (bilim–tafakkur)ning barcha jabhalarida (aniq, tabiiy, ijtimoiy...) o'z aksini topgani hech kimga sir emas. Ilm-fandagi bu hodisa lingvistik tadqiqotlarda "olam va odam konsepti" (lingvokultrologik konsept yoki olamning lisoniy manzarasi – muqoyasa bizniki) tushunchasining mutaxassislar diqqat markaziga aylanganligi va "konsept" tushunchasi yangicha mohiyat-e'tibor kasb etganligi hozirgi zamon tilshunosligi yangi yo'nalish metodlari bilan isbotlanadi. Umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Fon Gumboldt tilni: 1) mohiyatiga ko'ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat; 2) tuzilishiga ko'ra butunlik, yaxlitlik(sistema); 3) vazifasiga ko'ra, ijtimoiy hodisa sifatida belgiladi [1] va shu asosida hozirgi zamon tilshunosligi turli ildiz va yo'nalish topdi. Bu ildiz va yo'nalishlar tarixan bir bo'lsa-da, antropotsentrik tilshunoslik mohiyat e'tibori – diqqat markazida inson omili bilan peshqadam tilshunoslikka aylandi va lisoniy faoliyat, lingvistik hodisalarni inson, uning dunyoqarashi va ongi (bilim – tafakkur, ong, aql, zakovat, fahm, farosat tamiz, idrok, fikr, tasavvur, tushuncha, xotira, reja, zehn, fasohat, zakiylik, his-tuyg'u.)ga eng yaqin munosabatda – konseptuallikda ko'rib chiqishni taqazo qiladi. O'zbek tilidagi arabcha